

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI

**IQTIDORLI YOSHLARNI SARALAB OLISH TIZIMI VA AKADEMIK LITSEYLAR  
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA**

Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini rivojlantirish, ularni qo'llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlar yaratish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish borasidagi islohotlarni tizimli amalga oshirish, shuningdek akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish maqsadida:

1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari O'R. Salomov hamda huzurida akademik litseylar mavjud bo'lgan oliy ta'lim muassasalari rektorlari (filial direktorlari) iqtidorli yoshlarni akademik litseylarga saralab olish tizimini samarali tashkil etish, akademik litseylarda ta'lim sifatini muntazam oshirib borish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish uchun shaxsan mas'ul va javobgar etib belgilansin.

Huzurida akademik litseylar mavjud bo'lgan oliy ta'lim muassasalari rektorlari (filial direktorlari):

tegishli akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish uchun ilg'or xorijiy mamlakatlar malakali ekspertlarini jalb qilsin;

akademik litsey o'quvchilarining kamida bitta xorijiy tilni puxta o'zlashtirib chiqishi uchun dars mashg'ulotlariga yuqori malakali pedagoglar jalb qilinishi va zaruriy sharoitlar yaratilishini ta'minlasin;

oliy ta'lim muassasalari prorektorlari (filial direktori o'rinbosarlari)ni o'z yo'nalishlari bo'yicha akademik litseylar faoliyatiga har tomonlama yordam ko'rsatish va nazorat qilish uchun mas'ul etib belgilasin;

oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, shu jumladan rahbar xodimlari belgilangan tartibda akademik litseylarning dars mashg'ulotlariga jalb qilinishini ta'minlasin;

akademik litseylarning ta'lim infratuzilmasi muntazam ravishda rivojlantirib borilishini tashkil etsin.

2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda boshqa vazirlik va idoralar (bundan Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya mustasno) tizimidagi oliy ta'lim muassasalari, shuningdek xorijiy oliy ta'lim muassasalari huzuridagi akademik litseylarda (qaror bo'yicha matnda — akademik litseylar) o'quvchi yoshlarga ta'lim berishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilsin:

iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni akademik litseylarga saralab olish, chuqurlashtirilgan ta'lim dasturlari asosida o'qitish;

o'quvchi yoshlarda keng dunyoqarash, intellektual salohiyat, ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish, ilm-fanga bo'lgan qiziqishni oshirish, ularning fan olimpiadalaridagi ishtirokini kengaytirish;

o'quvchilarni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, vatanparvarlik, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik ruhida tarbiyalash;

akademik litseylarda ta'lim sifatini yaxshilash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, o'quvchilarning axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, ularni "ustoz-shogird" tizimi asosida tegishli sohada yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislariga biriktirish;

ta'lim jarayonini mazmunli va samarali tashkil etish uchun pedagoglar malakasini oshirish, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib borish tizimini isloh qilish;

zamonaviy ta'lim infratuzilmasi talablaridan kelib chiqib, akademik litseylardagi mavjud moddiy-texnik bazani mustahkamlab borish, bilimlarni mustaqil shakllantirish uchun sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish.

3. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (O'R. Salomov) uch oy muddatda ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutuvchi o'quv me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqsin va tasdiqlasin:

umumta'lim fanlar soati hisobiga chuqurlashtirilgan fanlar soatini oshirish hamda ular ulushini kamida 50 foizga yetkazish;

umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartida 10-11-sinf o'quvchilari umumta'lim tayyorgarligiga qo'yilgan majburiy talablarni shakllantirish bilan birga ularning iqtidorini har tomonlama rivojlantirish imkonini beruvchi o'quv dasturlari asosida o'qitish tartibini joriy etish;

ta'lim bosqichlari uzluksizligini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarining turdosh ta'lim yo'nalishlarida takroran o'qitiladigan fanlarni akademik litseylar o'quv dasturidagi tegishli fanlar bilan unifikatsiya qilish.

4. Belgilab qo'yilsinki, akademik litseylarda o'qish davrida unifikatsiya qilingan fanlarni o'zlashtirgan, oliy ta'lim muassasalarida talabalikka qabul qilingan ta'lim oluvchilar uchun ushbu fanlarni o'zlashtirish ixtiyoriy hisoblanadi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (O'R. Salomov) unifikatsiya qilingan fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlari tegishli oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan olib borilishini ta'minlasin.

5. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tizimida oliy ta'lim muassasalari hamda akademik litseylar mavjud bo'lgan vazirlik va idoralarning 2021/2022 o'quv yilidan boshlab:

akademik litseylarga iqtidorli yoshlarni saralab olish mexanizmini [1-ilovaga](#) muvofiq joriy etish;

**tajriba tariqasida, ro'yxati [2-ilovada](#) keltirilgan akademik litseylarga Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan maxsus hududlarda o'tkaziladigan test sinovlari bilan birgalikda dastlabki yozma imtihon asosida iqtidorli yoshlarni saralab olishning ikki bosqichli tizimini (keyingi o'rinlarda — ikki bosqichli tizim) amalga kiritish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin. Bunda, [1-ilovada](#) nazarda tutilgan fan**

## **olimpiadalari, tanlov g'oliblari va fanlarni o'zlashtirish sertifikatiga ega bo'lganlar uchun imtiyozlar mazkur akademik litseylarga o'qishga qabul qilishda ham inobatga olinishi belgilansin.**

6. Belgilab qo'yilsinki:

akademik litseylarga hujjat topshiruvchilarni ro'yxatdan o'tkazish Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali amalga oshiriladi;

akademik litseyning tegishli yo'nalishida o'qish uchun kelib tushgan arizalar soni belgilangan qabul parametriga 2:1 nisbatdan kam bo'lgan hollarda mazkur yo'nalish bo'yicha qabul parametrlari tegishli o'quv yili uchun arizalar soniga nisbatan ikki baravar qisqartiriladi, bundan mazkur yo'nalish uchun bir akademik guruh o'quvchilari soniga teng bo'lgan hollar mustasno;

ikki bosqichli tizimda dastlabki yozma imtihon kirish test sinovlaridan avval bo'ysunuvi bo'yicha tegishli oliy ta'lim muassasasi nazorati ostida akademik litsey tomonidan o'tkaziladi hamda uning yakunlari bo'yicha o'quvchilarni kirish test sinovlarini topshiruvchilar ro'yxatiga kiritish to'g'risida qaror qabul qilinadi;

ikki bosqichli tizimda dastlabki yozma imtihonni o'tkazish tartibi hamda baholash mezonlari bo'ysunuvi bo'yicha tegishli oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan tasdiqlanadi hamda 2021-yil 1-fevralga qadar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

7. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (O'.R. Salomov) Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda — Ta'lim inspeksiyasi) (U.N. Tashkenbayev), tizimida oliy ta'lim muassasalari hamda akademik litseylar mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2021-yil 15-dekabrga qadar tajriba natijalaridan kelib chiqib barcha akademik litseylarga ikki bosqichli tizim asosida qabul qilish tartibi to'g'risida asoslantirilgan takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

8. Iqtidorli yoshlarni saralab olish va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi (keyingi o'rinlarda — Dastur) [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

9. Akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha komissiya [4-ilovaga](#) muvofiq tarkibda tuzilsin.

Quyidagilar akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha komissiyaning (O'.R. Salomov) asosiy vazifalari etib belgilansin:

akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish sohasidagi dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

o'rta maxsus ta'lim sohasida ishtirok etuvchi vazirlik, idora va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda hamkorligini ta'minlash;

jamoatchilik fikrini o'rganish, ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish, pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida so'rovlar o'tkazish asosida akademik

litseylarda ta'lim sifatini oshirish va infratuzilmasini yaxshilash, ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini tatbiq etishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va bajarilishini tashkil etish;

akademik litseylarda ta'lim faoliyatining tashkil etilishi, ular faoliyatini boshqarish tizimining samaradorligi, yaratilgan sharoitlar, qo'llanilayotgan ta'lim-tarbiya usullarining ta'sirchanligini muntazam ravishda o'rganib borish va baho berish;

akademik litseylarda ta'lim sifatiga, jumladan ular reytingiga oid ko'rsatkichlarni tanqidiy tahlil qilish hamda ular yuzasidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hay'atiga tahliliy hujjatlar kiritish;

o'rta maxsus ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar tayyorlash;

mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlar ijrosini to'liq, sifatli va o'z vaqtida tashkil etish.

10. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (O'.R. Salomov) hamda huzurida akademik litseylar mavjud bo'lgan oliy ta'lim muassasalari rektorlari (filial direktorlari):

2021-yildan boshlab ilg'or xorijiy mamlakatlar, shu jumladan Finlyandiyaning malakali ekspertlarini jalb qilgan holda har yili akademik litseylar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan "Yo'l xarita"sini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

"Yo'l xarita"si ijrosini xorijiy ekspertlar ishtirokida muntazam ravishda monitoring qilib borsin hamda aniqlangan muammolarni zudlik bilan bartaraf etish choralarini ko'rsin;

akademik litseylarda har oyda kamida bir marotaba bevosita oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan akademik litsey xodimlari va o'quvchilari ishtirokida "rektor soati" o'tkazib borilishini tashkil qilsin;

tizimida akademik litseylar mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar bilan birgalikda akademik litseylarga ilmiy-metodik yordam ko'rsatish, o'quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish, ta'lim sifatini tubdan yaxshilash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedralarini akademik litseylar ta'lim yo'nalishlariga biriktirsin;

biriktirilgan kafedralar professor-o'qituvchilari tomonidan unifikatsiya qilingan fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini olib borish, ilg'or o'qitish uslublarini akademik litsey ta'lim jarayoniga mos ravishda tatbiq etish hamda mahorat darslarini o'tkazish, litsey o'quvchilari va o'qituvchilari o'rtasida tanlovlar o'tkazish, o'quvchilarning ilm-fan, innovatsion va ratsionalizatorlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil qilsin.

11. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

akademik litseylar faoliyati yiliga kamida ikki marotaba Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining hay'at yig'ilishi hamda oliy ta'lim muassasalarining ilmiy kengashida keng muhokamadan o'tkaziladi;

oliy ta'lim muassasalarining o'quv ishlari uchun mas'ul prorektori (filial direktori o'rinbosari) bir vaqtning o'zida akademik litsey direktori hisoblanadi. Bunda, oliy ta'lim muassasalarining o'quv ishlari uchun mas'ul prorektor (filial direktori o'rinbosari)lariga normativlarga muvofiq belgilanadigan ustamalarga qo'shimcha ravishda oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan bazaviy lavozim maoshiga nisbatan har oylik 20 foiz ustama to'lanadi;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan chet tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikatini berish bo'yicha akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun to'rtinchi semestr davomida bepul test sinovi tashkil etiladi;

oliy ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilinmagan hamda kasb-hunar egallash istagida bo'lgan akademik litsey bitiruvchilari bo'ysunuvi bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan kasb-hunarga o'rgatish kurslari (markazlari)da o'qitiladi. Bunda, tegishli oliy ta'lim muassasalari rektorlari (filial direktorlari) ushbu bitiruvchilarga kasb-hunar o'rgatish ishlarini tashkil qilish va ularga har tomonlama ko'maklashish uchun mas'ul ekanligi belgilab qo'yilsin.

12. Akademik litseylarga xodimlarni pedagogik faoliyatga jalb etish uchun belgilangan kamida 5 yil uzluksiz pedagogik ish stajiga ega bo'lish to'g'risidagi talab bekor qilinsin.

13. 2021/2022 o'quv yilidan boshlab:

a) Ta'lim inspeksiyasi (U.N. Tashkenbayev) akademik litseylarning, shu jumladan quyidagi yo'nalishlardagi faoliyatini qamrab oluvchi reytingini ishlab chiqsin va uning shaffof tarzda yuritilishini ta'minlasin:

akademik litseyga o'qishga kirish uchun hujjat topshirgan talabgorlar sonining mazkur litsey uchun belgilangan qabul parametriga nisbati (raqobat ko'rsatkichi);

oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan o'quvchilar ulushi;

reyting aniqlangan yilda nufuzli xalqaro va respublika fan olimpiadalari, sport musobaqalarida g'olib bo'lgan (sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan) akademik litsey o'quvchilari ulushi;

chet tili va fanlarni bilish darajasi to'g'risidagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lgan o'quvchilar ulushi;

ilmiy darajali, chet tili va fanlarni bilish darajasi to'g'risidagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lgan asosiy shtatdagi pedagoglar ulushi;

xorijiy pedagoglar, shuningdek, xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar — Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities reytinglarida birinchi 1 000 ta o'rinni egallagan oliy ta'lim muassasalari diplomlariga ega bo'lgan mahalliy pedagoglar ulushi;

b) reyting natijalari bo'yicha uzluksiz 3 yil davomida ta'lim sifatiga oid ko'rsatkichlarida salbiy dinamika kuzatilgan so'nggi 5 ta o'rindan birini egallab

kelgan akademik litseylar boshqa oliy ta'lim muassasasi tasarrufiga o'tkaziladi yoki boshqa turdagi ta'lim muassasasi sifatida qayta tashkil etiladi.

14. Iqtidorli yoshlarni oliy ta'lim muassasalariga jalb qilish, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida oliy ta'lim muassasalari huzurida yangidan tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan maktab va akademik litseylar ro'yxati [5-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Belgilab qo'yilsinki, oliy ta'lim muassasalari huzuridagi ixtisoslashtirilgan maktab direktorlari bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idora bilan kelishilgan holda oliy ta'lim muassasasining rektori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Quyidagilar yangidan tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktab va akademik litseylar faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;  
xo'jalik va tadbirkorlik faoliyatidan tushadigan mablag'lar;  
yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;  
xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari;  
qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

15. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ta'lim inspeksiyasi hamda Respublika oliy ta'lim kengashining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

dars mashg'ulotlarini, shu jumladan respublika yoki xorijiy ta'lim muassasalarining yuqori malakali pedagoglari ishtirokida onlayn tarzda o'tkazish;

akademik litseylar bazasida ushbu litseylarga o'qishga tayyorlash, kompyuter savodxonligini oshirish, kasb-hunar, jumladan Internet jahon axborot tarmog'i yordamida xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish) orqali o'zini o'zi band qilish (frilansing)ni o'rgatish bo'yicha ta'lim xizmatlarini, yozgi va qishki maktablarni tashkil etish;

pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun mualliflik metodikalari asosida ishlab chiqilgan, bo'ysunuvi bo'yicha tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashi qarori bilan chop etilishiga ruxsat etiladigan tayyorlov o'quv adabiyotlarini yaratish.

16. Akademik litseylarga budjetdan tashqari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan:

iqtidorli pedagoglarning xorijiy mamlakatlar ta'lim muassasalarida o'z mutaxassisligi bo'yicha qisqa muddatli malaka oshirish, shu jumladan onlayn kurslarda o'qishi bilan bog'liq xarajatlarni to'liq yoki qisman qoplash;

yuqori malakali, shu jumladan xorijiy mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb etish, alohida yutuqlarga erishgan pedagog va xodimlarga ustamalar hamda moddiy rag'batlantirishning boshqa turlari miqdorlarini mustaqil belgilash va to'lash;

iqtidorli, shuningdek aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlaridan bo'lgan o'quvchilarni moddiy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;

moddiy-texnik bazani mustahkamlash, kanselyariya jihozlari, dasturiy mahsulotlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini xarid qilish, tayyorlov o'quv adabiyotlarini nashr etish, litseylar veb-saytlarini yaratish va ta'minlab borish, masofaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish huquqi berilsin.

Zarur hollarda, oliy ta'lim muassasalariga budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan o'z tizimidagi akademik litseylarni ushbu bandeda ko'rsatilgan xarajatlarni birgalikda moliyalashtirishga ruxsat berilsin.

17. Belgilab qo'yilsinki:

**a) O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan 2021-yil 1-yanvardan boshlab akademik litsey pedagoglari va xodimlarining mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida:**

akademik litsey pedagog va o'quv-yordamchi xodimlari mehnatiga haq to'lashda Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarning tegishli xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash shartlari qo'llaniladi;

**akademik litsey direktorining o'quv-tarbiya jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan o'rinbosarlarining bazaviy lavozim maoshlariga 20 foiz miqdorida** har oylik ustamalar to'lanadi;

b) bo'ysunuvi bo'yicha tegishli oliy ta'lim muassasasining moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqib, budjetdan tashqari, **jumladan to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan akademik litseylarda o'rnak ko'rsatgan pedagog va xodimlarga lavozim maoshlarining 100 foizigacha miqdorida har oylik ustamalar to'lanadi;**

v) akademik litseylarning fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD), shuningdek fan doktori yoxud fan doktori (DSc) ilmiy darajalariga, professor yoki dotsent ilmiy unvonlariga ega bo'lgan pedagog xodimlari mehnatga haq to'lash shartlariga ko'ra oliy ta'lim muassasasi katta o'qituvchisiga tenglashtiriladi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

g) 2021-yil 1-yanvardan boshlab o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida ta'lim muassasasi direktorining (ijrochi direktorining) bazaviy lavozim maoshiga nisbatan bosh hisobchining bazaviy **lavozim maoshi 80 foiz miqdorida, hisobchining bazaviy lavozim maoshi 60 foiz miqdorida belgilanadi.**

*(17-bandning "g" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-73-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 07/21/73/1227-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

18. Belgilansinki, mazkur qarorning 17-bandini O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar tizimidagi harbiy-

akademik litseylar hamda Ichki ishlar vazirligi tizimidagi akademik litseylarning ("Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseylari, Ichki ishlar vazirligi ixtisoslashtirilgan maktab-internati va "Yosh chegarachi" harbiy-akademik litseyi bundan mustasno) fuqaro tarkibidagi (shahodatlanmagan) ma'muriy boshqaruv, pedagog va boshqa xodimlariga nisbatan ham qo'llaniladi.

*(18-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-avgustdagi PQ-344-son qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022-y., 07/22/344/0704-son)*

19. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2020/2021 o'quv yilidan boshlab:

akademik litseylar yo'nalishlari va bloklariga qarab bir pedagog xodimga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni nisbatining cheklangan normativi 1:12 nisbatda belgilanadi. Bunda, yo'nalishlar va bloklar bo'yicha bir nafar pedagog xodimga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni nisbatining normativlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar bo'yicha har semestrda o'quvchilarni salohiyatiga ko'ra teng nisbatda guruhlarga bo'lib o'qitishga ruxsat etiladi.

**20. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (O'.R. Salomov) Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) bilan birgalikda uch oy muddatda amaldagi akademik litsey va professional ta'lim muassasalarining direktor jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibini soddalashtirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga normativ-huquqiy hujjat loyihasini kiritsin.**

21. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (A.J. Ortiqov) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (I.U. Madjidov) hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda asoslangan hisob-kitoblarga binoan akademik litseylarning bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash hamda jihozlash ishlarining 2022-yil va kelgusi yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturlariga muntazam kiritib borilishini ta'minlasin.

22. Ushbu qarorda belgilangan chora-tadbirlarning samarali va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi Q.R. Sariyev, Qashqadaryo viloyati hokimi Z.T. Mirzayev, Samarqand viloyati hokimi E.O. Turdimov, Sirdaryo viloyati hokimi G'.G'. Mirzayev, Surxondaryo viloyati hokimi T.A. Bobolov, Toshkent viloyati hokimi R.Q. Xolmatov, Xorazm viloyati hokimi F.U. Ermanov va Toshkent shahar hokimi J.A. Artikxodjeyev hududlarda oliy ta'lim muassasalari huzurida yangidan tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan maktab va akademik litseylar faoliyatini to'laqonli yo'lga qo'yishda har tomonlama ko'maklashsin.

tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari mazkur qarorda zimmasiga yuklangan vazifalar hamda Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarning ijrosini o'z vaqtida va sifatli tashkil qilsin.



23. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (I.U. Madjidov) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

24. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari O'R. Salomov belgilansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan 2021-yil 1-iyun va 2021-yil 20-dekabr qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berilsin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2020-yil 3-dekabr,  
PQ-4910-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda  
PQ-4910-son qaroriga  
1-ILOVA

### **Akademik litseylarga iqtidorli yoshlarni saralab olish**

#### **MEXANIZMI**

<b>Saralab olish mexanizmi/Imtiyoz egalari</b>	<b>Imtihon/Imtiyoz mazmuni</b>
<b>Akademik litseylarga iqtidorli yoshlarni test sinovlari asosida saralab olish mexanizmi</b>	
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan maxsus pavilonlarda o'tkaziladigan <b>test sinovlari</b> .	Test sinovlari quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:  I bo'lim — tanlangan yo'nalishga <b>mos 2 ta fan bo'yicha test sinovlari</b> ;  II bo'lim — <b>intellektual qobiliyat darajasi (IQ)ni</b> aniqlash bo'yicha test.
<b>Fan olimpiadalari, tanlovlar g'oliblari va fanlarni o'zlashtirish sertifikatiga ega bo'lganlar uchun imtiyozlar</b>	
<b>Xalqaro matematika olimpiadasi</b> (International Mathematical Olympiad (IMO)), <b>Xalqaro fizika olimpiadasi</b> (International Physics Olympiad (IPhO)), <b>Xalqaro kimyo olimpiadasi</b> (International Chemistry Olympiad (IChO)), <b>Xalqaro biologiya olimpiadasi</b> (International Biology Olympiad (IBO)), <b>Xalqaro informatika olimpiadasi</b> (International Olympiad in Informatics (IOI)) <b>xalqaro fan olimpiadalarida ishtirok etgan yoki Xalqaro Jautikov Olimpiadasi</b> (International Zhautykov Olympiad (IZhO)), <b>Xalqaro Mendeleev olimpiadasi</b> , <b>O'smirlar o'rtasida Xalqaro Tabiiy fanlar olimpiadasi</b> (International Junior Science Olympiad (IJSO)), <b>Xalqaro Matematika musobaqasi</b> (International Mathematics Competition (IMC))dag'oliblikni qo'lga kiritgan umumta'lim muassasalarining 8-9-sinf o'quvchilari.	Akademik litseyning mos yo'nalishiga qabul parametrlaridan tashqari imtihonsiz qabul qilinadilar.

Umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari orasidan fan olimpiadasining respublika bosqichida 1 — 3-o'rinlar g'oliblari.				Akademik litseyning mos yo'nalishiga hujjat topshirganda, dastlabki yozma imtihondan ozod etiladi va ixtisoslik fani bo'yicha test sinovidan maksimal ball beriladi.
<b>T/r</b>	<b>Sertifikatlar nomi</b>	<b>Tillar/Fanlar</b>	<b>Minimal ballar</b>	Mazkur chet tili va fanlarni bilish darajasi to'g'risidagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lgan o'quvchilarga akademik litseylarga kirish test sinovlarining fanlar majmuasiga kiritilgan mos chet tili va fanlardan imtihonlarsiz maksimal ball beriladi.
1.	International English Language Testing System (IELTS academic)	Ingliz tili	5	
2.	Test of English as a Foreign Language (TOEFL)		IBT 42	
3.	Cambridge Assessment English PET		B1	
4.	Goethe-Zertifikat	Nemis tili	B1	
5.	TestDaf		B1	
6.	Deutsches Sprachdiplom		B1	
7.	Diplome d'Etudes en Langue Francaise (DELFI)	Fransuz tili	B1	
8.	Test de Connaissance du Francais (TCF)		B1	
9.	Boshqa tillar uchun — milliy sertifikat yoki xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha	Ispan, turk, arab, fors, dari, hind, urdu, xitoy, koreys, uyg'ur, italyan, yapon tili	B1	
10.	Umumta'lim fani va chet tilini bilish darajasi bo'yicha milliy sertifikat	tegishliligi bo'yicha	B1*	
Akademik litseylar tomonidan umumta'lim muassasalarining iqtidorli o'quvchilarini jalb qilish maqsadida 8-9-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan olimpiada va tanlovlar g'oliblari.				Ikki bosqichli saralab olish tizimi joriy etilgan akademik litseylarga o'qishga kirishda dastlabki yozma imtihondan ozod etiladi.

\* Izoh: umumta'lim fanini bilish darajasi bo'yicha minimal ball Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PQ-4910-son qaroriga  
2-ILOVA

**Tajriba tariqasida ikki bosqichli imtihon sinovlari orqali iqtidorli yoshlarni saralab olish tartibi joriy etiladigan akademik litseylar**

RO'YXATI

<b>T/r</b>	<b>Akademik litsey nomi</b>
1.	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi akademik litsey

2.	Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti huzuridagi akademik litsey
3.	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi akademik litsey
4.	Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti huzuridagi akademik litsey
5.	Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi akademik litsey
6.	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi akademik litsey
7.	Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi akademik litsey
8.	O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi akademik litsey
9.	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi akademik litsey
10.	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi akademik litsey
11.	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi akademik litsey
12.	Toshkent moliya instituti huzuridagi akademik litsey
13.	Jizzax davlat pedagogika instituti huzuridagi akademik litsey
14.	Namangan davlat universiteti huzuridagi akademik litsey

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda PQ-4910-son qaroriga  
3-ILOVA

### Iqtidorli yoshlarni saralab olish va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha

#### CHORA-TADBIRLAR DASTURI

*Oldingi tahrirga qarang.*

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
1.	Akademik litseyga o'qishga qabul qilish, ko'chirish va o'qishdan chetlatish tartibini takomillashtirish.	1. Akademik litseylarga umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tanlab olish, o'qishga qabul qilish, ularning o'qishini ko'chirish va o'qishdan chetlatish tartibi to'g'risidagi Nizomni, shu jumladan, quyidagilar asosida takomillashtirishni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish:  a) quyidagilarga <b>ruksat etilmasligini</b> belgilash:	2021-yil 1-aprel	-	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), Xalq ta'limi vazirligi ( <i>Sh. Shermatov</i> ), tizimida oliy ta'lim muassasalari hamda akademik litseylar mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar

akademik  
litseydan o'qishdan  
chetlatilgan  
o'quvchilar  
o'qishini tiklashga;

umumta'lim  
muassasalaridan  
akademik litseylarga  
o'qishni  
ko'chirishga;

akademik  
litseylararo o'qishni  
ko'chirishga, qonun  
hujjatlarida oliy  
ta'lim muassasalari  
talabalariga o'qishni  
ko'chirish uchun  
belgilangan uzrli  
sabablar hamda  
umumta'lim  
muassasalarining 9-  
sinf bitiruvchilari  
orasidan respublika,  
shuningdek 8-9-  
sinflar bitiruvchilari  
orasidan xalqaro  
nufuzli fan  
olimpiadalari  
g'oliblarining  
boshqa akademik  
litseylar mos  
yo'nalishlariga  
o'qishni ko'chirishi  
bundan mustasno;

b) semestr yakuni  
bo'yicha ikki yoki  
undan ortiq fanni  
"qoniqarsiz" bahoga  
o'zlashtirgan va  
tartib-qoidalarni  
qo'pol ravishda  
buzgan  
o'quvchilarni  
o'qishdan chetlatish;

akademik  
litseylardan  
chetlatilgan  
o'quvchilar

		o'qishini yashash joyi bo'yicha umumta'lim muassasasiga ko'chirish. 2. Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2021-yil 15-aprel		
2.	Barcha fanlardan eng yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan 10 nafar o'quvchiga akademik litsey pedagogik kengashi qaroriga ko'ra "Akademik litseyimiz iftixori" stipendiyasini to'lash.	1. Davlat budjetidan akademik litseylarga ajratilgan mablag'lar hisobidan har semestrda bir marotaba uning yakuni bo'yicha barcha fanlardan eng yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan 10 nafar o'quvchiga akademik litsey pedagogik kengashi qaroriga ko'ra bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida "Akademik litseyimiz iftixori" stipendiyasi to'lash tartibini belgilash. 2. Mazkur tartib asosida o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan o'quvchilarga stipendiyalar to'lab borish.	2021-yil 1-may  2021/2022 o'quv yilidan boshlab doimiy	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), Moliya vazirligi ( <i>T. Ishmetov</i> ), tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar
3.	Akademik litseylar uchun ikki yillik tizimga moslashtirilgan hamda o'quvchilarda muayyan kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim	1. Akademik litseylar uchun ikki yillik tizimga moslashtirilgan hamda o'quvchilarda muayyan kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv va fan dasturlari asosida o'quv	2021-yil 15-may	-	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ( <i>U. Tashkenbayev</i> ), tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar

	<p>va fan dasturlari asosida o'quv adabiyotlari — darsliklar, o'quv va o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish tizimini takomillashtirish.</p>	<p>adabiyotlari — darsliklar (shu jumladan, multimedia ilovalari bilan), o'quv va o'quv-metodik qo'llanmalarni yaratish tizimini xalqaro tajribalar (xususan, YUNESKO tavsiyalari) asosida isloh qilish, bu borada quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqish:</p> <p>dars va fakultativ mashg'ulotlar olib borishda ilg'or xorijiy mamlakatlar o'quv adabiyotlaridan foydalanishga ruxsat berish;</p> <p>muqobil o'quv adabiyotlarini yaratish tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;</p> <p>vazirlik tomonidan muqobil o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan aniq talab va mezonlarni belgilash hamda keng jamoatchilik e'tiboriga havola etish;</p> <p>muqobil o'quv adabiyotlarining ekspertizasi jarayonini raqamlashtirgan holda uni xolislik, oshkoralik asosida</p>			
--	--	---	--	--	--

		<p>qisqa muddatlarda tashkil etish;</p> <p>o‘rnatilgan talab va mezonlar hamda tegishli aprobatsiya natijalari asosida ekspertizadan o‘tgan muqobil o‘quv adabiyotlariga grif berish;</p> <p>bo‘ysunuv bo‘yicha oliy ta’lim muassasasi kengashi qarori asosida muqobil o‘quv adabiyotlaridan o‘quv jarayonida foydalanish huquqini berish;</p> <p>akademik litseylar kutubxonalarini zarur miqdordagi zamonaviy o‘quv va badiiy adabiyotlar bilan muntazam ta’minlab borish manbalarini belgilash.</p> <p>2. Chora-tadbirlar dasturi loyihasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	2021-yil 1-iyun		
4.	Akademik litsey pedagog xodimlarini ishga qabul qilish tartibini takomillashtirish.	Akademik litsey pedagog xodimlariga qo‘yiladigan talablarni kuchaytirish, onlayn tarzda vakant o‘rinlarga o‘tkazilayotgan tanlovlarga oid ma’lumotlarni e’lon qilish hamda arizalarni qabul qilish, shuningdek, tanlov asosida ishga	2021-yil 1-aprel	-	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ( <i>N. Xusanov</i> ), tizimida oliy ta’lim muassasalari mavjud bo‘lgan vazirlik va idoralar

		qabul qilishning shaffof va markazlashtirilgan elektron mexanizmi yaratilishini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash.			
5.	Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish.	<p>1. Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish bo'yicha Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2020-yil 1-sentabr</p> <p>2021-yil 15-sentabr</p>	-	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ( <i>U. Tashkenbayev</i> ) tizimi da oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar
6.	Akademik litseylarda guruh jurnali, reyting daftarchasi, o'quv mashg'ulotlari, imtihon jadvallari, o'quvchilar o'zlashtirishi, davomati, diplom va akademik ma'lumotnomalarni raqamlashtirishni nazarda tutuvchi axborot tizimini joriy etish.	<p>Barcha akademik litseylarda guruh jurnali, reyting daftarchasi, o'quv mashg'ulotlari, imtihon jadvallari, o'quvchilar o'zlashtirishi, davomati, diplom va akademik ma'lumotnomalarni raqamlashtirishni nazarda tutuvchi axborot tizimini ishlab chiqish va unda, shu jumladan quyidagilarni ko'zda tutish:</p> <p>o'quvchilar hamda jamoatchilik nazoratini ta'minlash uchun ularning ota-onalari (ular o'rnini bosuvchi shaxslar, vasiylar, homiylar)</p>	2021-yil 1-avgust	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), Axborot texnologiyalari vazirligi ( <i>Sh. Sodiqov</i> ), Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ( <i>U. Tashkenbayev</i> ), tizim ida oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar



		<p>uchun mazkur axborot tizimidan foydalanish imkoniyatini yaratish;</p> <p>axborot tizimida har bir akademik litsey o'quvchilari va pedagoglari orasida yiliga kamida ikki marotaba anonim ijtimoiy so'rov o'tkazish imkoniyatining yaratilishi;</p> <p>so'rovda o'quvchi-yoshlarning akademik faoliyati, ta'lim muassasasida yaratilgan sharoit, ta'lim sifatiga oid muammolar kabi masalalarning qamrab olinishi;</p> <p>so'rovnoma Ta'lim inspeksiyasi bilan birgalikda ishlab chiqilishi;</p> <p>so'rovnoma natijalaridan akademik litsey va bo'ysunuvi bo'yicha tegishli oliy ta'lim muassasasi rahbariyatlari, shuningdek, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Ta'lim inspeksiyasi foydalanishlari mumkinligi.</p> <p>2. Axborot tizimini joriy etish.</p>			
7.	Akademik litseylarga o'qishga qabul	1. Akademik litseylarga o'qishga qabul qilish	Har yili 1-may	-	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), Moliya

	qilish parametrlarini belgilash.	parametrlarini shakllantirish. 2. Akademik litseylarga qabul parametrlarini O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlash.	Har yili 1-iyun		vazirligi ( <i>T. Ishmetov</i> ), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ( <i>A. Ortiqov</i> ), tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar
8.	Akademik litseylarga o'quvchilarni qabul qilish uchun imtihonlarni tashkil etish.	1. Akademik litseylarga kirish test sinovlarini o'tkazishning aniq sana va joylari haqida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, oliy ta'lim muassasalari, akademik litseylar veb-saytlarida, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish. 2. Test sinovlarini o'tkazish.	Test sinovlarini o'tkazishda kamida 15 kun avval  Har yili iyun-iyul oylari	-	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ),  Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ( <i>U. Tashkenbayev</i> ),  tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar
9.	Akademik litseylarga o'qishga qabul qilish uchun o'tkaziladigan test sinovlari majmuasini tasdiqlash.	1. Navbatdagi o'quv yilida yo'nalishlar bo'yicha test sinovlari o'tkaziladigan fanlar majmuasini tasdiqlash hamda ularni navbatdagi o'quv yili uchun e'lon qilib borish.  2. Mantiqiy fikrlash darajasi (IQ)ni aniqlash bo'yicha test uchun tayyorlanishi lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxatini tasdiqlash va e'lon qilish.	2021-yil 15-yanvar 2021/2022 o'quv yilidan boshlab har yili 1-noyabr	-	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), Davlat test markazi ( <i>M. Karimov</i> )

10	Akademik litseylar o'qituvchilarining malakasini oshirish.	Akademik litseylarning iqtidorli o'qituvchilarini Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasining stipendiyasi asosida xorijiy mamlakatlarda magistratura va doktoranturada o'qitishni, buyurtmachi tashkilotning to'g'ridan to'g'ri buyurtmalari asosida malaka oshirish va stajirovka o'tashini tashkil etish.	Doimiy	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va tizimida oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lgan vazirliklar va idoralar uchun Davlat budjetida nazarda tutilgan maqsadli mablag'lar, ularning budjetdan tashqari mablag'lari, Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi mablag'lari va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar, "El-yurt umidi" jamg'armasi
11	Akademik litseylarga iqtidorli o'quvchilarni jalb qilish.	Akademik litseylarga iqtidorli o'quvchilarni jalb qilish maqsadida umumta'lim muassasalari 8-9-sinf o'quvchilari o'rtasida shaffoq tarzda olimpiada va turli tanlovlar o'tkazish, shuningdek umumta'lim muassasalarining 5-6-sinf o'quvchilarining bilimi, qiziqishi va	Doimiy	-	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), Xalq ta'limi vazirligi ( <i>Sh. Shermatov</i> ), tizimida akademik litseylar bo'lgan oliy ta'lim muassasalari

		shaxsiy sifatlarini o'rganish asosida yagona ma'lumotlar bazasini yaratish hamda umumta'lim maktablarida akademik litseylar faoliyati, qabul shartlari va imtiyozlar to'g'risida o'quvchilarni xabardor qilish bo'yicha keng targ'ibot ishlarini olib borish.			
12	Akademik litseylar bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirishi darajasi bo'yicha tahlillar olib borish.	Akademik litseylarga umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tanlab olish, o'qishga qabul qilish, ularning o'qishini ko'chirish va o'qishdan chetlatish tartibiga muvofiq belgilangan talablarning tegishli o'quv yilidagi ijrosi doirasida akademik litseylar bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirishi darajasi, ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog xodimlariga nisbatan ko'rilgan choralar bo'yicha tahlillar o'tkazib, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Adm nistratsiyasiga axborot kiritish.	2021-yil 1-may 2021/2022 o'quv yilidan boshlab har yili 1-oktabr	-	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ( <i>U. Tashkenbayev</i> ), Davlat test markazi ( <i>M. Karimov</i> ), tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar

(3-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-noyabrdagi PF-3-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PQ-4910-son qaroriga  
4-ILOVA

## Akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha komissiya

### TARKIBI

O'R. Salomov	— O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari, <b>komissiya raisi</b>
U.U. Sharifxodjayev	— O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari
Sh.U. Turdikulova	— O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirining birinchi o'rinbosari
A.J.. Ortiqov	— O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirining birinchi o'rinbosari
E.M. Muxitdinov	— O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirining birinchi o'rinbosari
J.I. Abruyev	— O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining o'rinbosari
O.A. Pekos	— O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining birinchi o'rinbosari
Sh.I. Asadov	— O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirining o'rinbosari
O.A. Qo'ysinov	— O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining o'rinbosari
S.B. Radjabov	— O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi direktori o'rinbosari
U.P. Umurzakov	— Respublika oliy ta'lim kengashi raisi
R.I. Xolmurodov	— Samarqand davlat universiteti rektori
K.X. Karimov	— Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori
S.S. Niyazbekov	— O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bosh boshqarma boshlig'i, <b>komissiya kotibi</b>

Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

Komissiya faoliyatiga kelishilgan holda boshqa vazirliklar, idoralar, xo'jalik jamiyatlari va fuqarolik jamiyati institutlari rahbarlari va mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda PQ-4910-son qaroriga  
5-ILOVA

## Oliy ta'lim muassasalari huzurida yangidan tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan maktab va akademik litseylar

### RO'YXATI

T/r	Tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan maktab/akademik litsey nomi	Ixtisoslashtirilgan maktab/akademik litsey joylashtiriladigan bino
<b>I. 2020/2021 o'quv yilidan boshlab faoliyati tashkil etiladigan ta'lim muassasalari</b>		
1.	Urganch davlat universiteti huzuridagi fizika-matematika va informatika fanlariga ixtisoslashtirilgan maktab	Xorazm viloyati, Urganch shahar 6-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
2.	Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktab	Nukus davlat pedagogika instituti qoshidagi faoliyati tugatilgan akademik litsey
<b>II. 2021/2022 o'quv yilidan boshlab faoliyati tashkil etiladigan ta'lim muassasalari</b>		
1.	O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab	O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi faoliyati tugatilgan akademik litsey
2.	Samarqand davlat universiteti huzuridagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab	Samarqand davlat universiteti qoshidagi Urgut tumani 3-sonli faoliyati tugatilgan akademik litsey

3.	Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab	Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti qoshidagi faoliyati tugatilgan Yunusobod akademik litseyi
4.	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti qoshidagi faoliyati tugatilgan akademik litsey
5.	Toshkent davlat pedagogika universitetining Shahrisabz filiali huzuridagi akademik litsey	Faoliyati tugatilgan Shahrisabz axborot texnologiyalari kasb-hunar kolleji filiali
6.	Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali huzuridagi akademik litsey	Faoliyati tugatilgan Oqoltin sanoat kasb-hunar kolleji
7.	Toshkent davlat agrar universiteti Termiz filiali huzuridagi akademik litsey	Faoliyati tugatilgan Qiziriq qishloq xo'jalik va servis kasb-hunar kolleji
8.	Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali huzuridagi akademik litsey	Faoliyati tugatilgan Angren xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji

Izoh: Xorazm viloyati, Urganch shahar 6-son umumiy o'rta ta'lim maktabi ham faoliyatini o'z binosida davom ettiradi.

2020/2021 o'quv yilidan boshlab faoliyati tashkil etiladigan ta'lim muassasalariga qabul o'quv yili davomida amalga oshiriladi.

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020-y., 07/20/4910/1593-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son, 30.12.2021-y., 07/21/73/1227-son; 03.08.2022-y., 07/22/344/0704-son)*